


2019-yil 1-avgust holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimizda 1809 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 879 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1944 ta (18,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 12710 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-avgust holatiga 12710 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,1 %ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 27,0 % savdo, 13,4 % sanoat, 9,5 % qurilish, 12,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,9 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 24,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Umumiy soni, birlikda		01.08.2019 yil	
	01.08.2018 yil	01.08.2019 Yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
Jami	10766	12710	118,1	100,0
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1331	1546	116,2	12,2
Sanoat	1253	1703	135,9	13,4
Qurilish	981	1211	123,4	9,5
Savdo	2861	3427	119,8	27,0
Tashish va saqlash	582	617	106,0	4,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	604	805	133,3	6,3
Axborot va aloqa	171	176	102,9	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	128	141	110,2	1,1
Boshqa turlari	2855	3084	108,0	24,2

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3909 ta), Sirdaryo (1996 ta), Sayhunobod (1027 ta) va Guliston (968 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (282 ta), Sardoba (519 ta) hamda Oqoltin (553 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 11793 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1766 ta (17,6 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,7 % savdo, 13,6 % sanoat, 9,7 % qurilish, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,8 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 24,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3664 ta), Sirdaryo (1819 ta), Sayhunobod (987 ta) Boyovut (927 ta) va Mirzaobod (893 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (257 ta), Sardoba (499 ta) hamda Oqoltin (511 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-iyul oylarida 1809 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 94,5 %ga ko'pdir.

Yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Guliston shahri (480 ta), Sirdaryo (287 ta), Boyovut (147 ta) va Guliston (141 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (32 ta), Xovos (104 ta) hamda Oqoltin (113 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (585 ta), sanoat (390 ta), qurilish (221 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (216 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (13 ta), axborot va aloqa (17 ta) hamda tashish va saqlash (30 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy
faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Tijorat korxonalarini

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-avgust holatiga 9736 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 2797 ta, oilaviy korxonalar - 148 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 6481 ta va boshqalar 310 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 138 tani tashkil etdi. O`tgan yilning shu davriga nisbatan 37 ta ga yoki 36,6 %ga o`sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog`iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to`g`ri keladi.

2019-yil 1-avgust holatiga xorijiy kapital ishtirokida 138 ta korxonona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu korxonona va tashkilotlarning eng yuqorisi Sirdaryo (53 ta), Guliston shahri (33 ta), Yangiyer shahri (17 ta) va Sayhunobod (10 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Eng kami esa Guliston (1 ta), Shirin shahri (3 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Sardoba (3 ta) tumanlariga to`g`ri keladi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 95 tasi qo'shma korxonalar, 43 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	138	100
Oqoltin tumani	3	2,2
Boyovut tumani	5	3,6
Sayhunobod tumani	10	7,2
Guliston tumani	1	0,7
Sardoba tumani	3	2,2
Mirzaobod tumani	6	4,3
Sirdaryo tumani	53	38,4
Xovos tumani	4	2,9
Guliston shahar	33	23,9
Shirin shahar	3	2,2
Yangiyer shahar	17	12,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-iyul oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 33 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Guliston shahar (9 ta yoki jamidagi ulushi 27,3 %), Sirdaryo tumani (8 ta yoki 24,2 %) va Yangiyer shahri (6 ta yoki 18,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Shirin shahar (1 ta yoki 3,0 %), Mirzaobod tumani (1 ta yoki 3,0 %) va Boyovut tumani (1 ta yoki 3,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-iyul oylarida
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 2 ta, Turkiya Respublikasi - 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 9 ta, Qozog'iston Respublikasi - 5 ta va Koreya Respublikasi - 2 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-iyul oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (18 ta), savdo (9 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (3 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa axborot va aloqada (1 ta) hamda qurilish (2 ta), tashkil etgan.


2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-avgust holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 9690 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-avgust holatiga qaraganda 20,8 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3164 tasi (32,7 %) Guliston shahri, 1561 tasi (16,1 %) Sirdaryo, 815 tasi (8,4 %) Sayhunobod hamda 735 tasi (7,6 %) Mirzaobod tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiyati ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 9690 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3144 tasi (32,4 %) - savdo, 1581 tasi (16,3 %) - sanoat, 1136 tasi (11,7 %) - qurilish, 1326 tasi (13,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 749 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 562 tasi (5,8 %) - tashish va saqlash, 153 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, 93 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 946 tasi (9,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-iyul oylarida 1721 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (448 ta), Sirdaryo (278 ta), Boyovut (138 ta) va Guliston tumanlari (135 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (27 ta), Xovos (99 ta) hamda Oqoltin (105 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (578 ta), sanoatda (385 ta), qurilishda (219 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (215 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (13 ta), axborot va aloqada (17 ta) hamda tashish va saqlashda (30 ta) tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-avgust holatiga 159 tani tashkil etib, ulardan 148 tasi yoki 93,1 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 39,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 48,0 % yoki 71 tasi sanoat, 16,2 % yoki 24 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,5 % yoki 23 tasi savdo, 12,8 % yoki 19 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 5,4 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalarini soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Sirdaryo viloyati	64	100
Oqoltin tumani	3	4,7
Boyovut tumani	5	7,8
Sayhunobod tumani	-	-
Guliston tumani	7	10,9
Sardoba tumani	-	-
Mirzaobod tumani	4	6,3
Sirdaryo tumani	16	25,0
Xovos tumani	-	-
Guliston shahar	20	31,3
Shirin shahar	1	1,6
Yangiyer shahar	8	12,4

2019-yil yanvar-iyul oylarida 64 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,9 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Guliston shahri (20 ta), Sirdaryo (16 ta), Yangiyer shahri (8 ta) va Guliston tumani (7 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (1 ta), Oqoltin (3 ta) hamda Mirzaobod (4 ta) tumanlarida tashkil etilgan.


2019-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Sanoat



Savdo



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar



Qishloq, o'rmon va
baliq xo'jaligi



Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 65,6 % yoki 42 tasi sanoat, 7,8 % yoki 15 tasi savdo, 9,4 % yoki 6 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,6 % yoki 10 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi hamda 1,6 % yoki 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi statistik registrlarni
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00